



UDK:811

Madina MUHAMMADIYEVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: muhammadiyevamadina495@gmail.com

PhD S.Rasulova taqrizi asosida

“SHUM BOLA” ASARIDAGI FORS-TOJIK TILIDAN O'ZLASHGAN BA'ZI LEKSEMALARNING ETIMOLOGIK VA SEMANTIK TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada G'afur G'ulomning “Shum bola” asarida qo'llangan fors-tojik tilidan o'zlashgan ayrim leksemalarning etimologik, semantik va morfologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda karvon, ig'vogar, zahar, juvonmarg, durbin, bebosh, banda, balli, afsus, anjom leksemalarining kelib chiqishi, shakllanishi va badiiy matndagi vazifasi ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: G'afur G'ulom, “Shum bola”, fors-tojik o'zlashmalari, etimologiya, morfologiya, semantika, leksik tahlil.

ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЙ И СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ЛЕКСЕМ, ЗАИМСТВОВАННЫХ ИЗ ФАРСИ-ТАДЖИКСКОГО ЯЗЫКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ “SHUM BOLA”

Аннотация

В данной статье анализируются этимологические, семантические и морфологические особенности некоторых лексем, заимствованных из персидско-таджикского языка, употреблённых в произведении Гафура Гуляма «Шум бола». В исследовании научно освещаются происхождение, формирование и функции в художественном тексте таких лексем, как карвон, игвогар, захар, жувонмarg, дурбин, бебoш, бaндa, бaлли, aфсyс, aнжoм.

Ключевые слова: Гафур Гулям, «Шум бола», персидско-таджикские заимствования, этимология, морфология, семантика, лексический анализ.

ETYMOLOGICAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF CERTAIN LEXEMES BORROWED FROM THE PERSIAN-TAJIK LANGUAGE IN THE WORK “SHUM BOLA”

Annotation

This article analyzes the etymological, semantic, and morphological features of several lexemes borrowed from the Persian–Tajik language that are used in G'afur G'ulom's work Shum bola. The study provides a scholarly explanation of the origin, formation, and artistic function of the lexemes karvon, ig'vogar, zahar, juvonmarg, durbin, bebosh, banda, balli, afs us, and anjom.

Key words: G'afur G'ulom, Shum bola, Persian–Tajik borrowings, etymology, morphology, semantics, lexical analysis.

Kirish. G'afur G'ulomning “Shum bola” qissasi o'zbek bolalar adabiyotining eng yorqin namunalari bo'lib, unda xalqona til, so'z boyligi, hazil-mutoyiba va jonli nutq unsurlari keng qo'llanadi. Asar tilida tarixan shakllangan fors-tojik o'zlashmalari ko'p uchrashi tabiiy bo'lib, ular personajlarning nutqini tabiiylashtirish, davr ruhini berish hamda uslubiy rang-baranglik yaratishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada asarda faol uchraydigan karvon, ig'vogar, zahar, juvonmarg, durbin, bebosh, banda, balli, afsus, anjom fors-tojik leksemasi lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Hozirgi o'zbek adabiy tili tarkibida fors-tojik o'zlashmalari juda katta qatlamni tashkil etadi. Ular nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy nutqning faol unsuri sifatida ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek tilining leksik tarkibi shakllanishida fors-tojik tili muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur masala o'zbek leksikologiyasi va tarixiy tilshunosligida bir qator olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Jumladan, A. Kononov, A. Madvaliyev, A. Shukurov, Sh. Rahmatullayev, G'. Abdurahmonov va boshqalar o'zbek tiliga fors-tojik tilidan kirgan leksemalarning fonetik-morfologik moslashuvi, semantik o'zgarishi hamda stilistik funksiyalari haqida muhim nazariy xulosalar berganlar.

Sh. Rahmatullayevning izohlariga ko'ra, o'zbek tili lug'at tarkibidagi fors-tojikcha o'zlashmalar ikki asosiy guruhga: qadimgi o'zlashmalar va yangi davrdagi o'zlashmalarga bo'linadi. Qadimgi qatlamga mansub so'zlar

grammatik va fonetik jihatdan to'liq o'zbekchallashtirilgan bo'lib, ular asosan kundalik hayot, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, madaniyat va maishiy sohalarga oid termin va nomlarni o'z ichiga oladi. Bunday leksemalar “Shum bola” asarida ham faol uchraydi va matnning stilistik bo'yqordorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

M. Yo'ldoshev hamda G'. Abdurahmonovlarning tadqiqotlarida fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlarning o'zbek badiiy matni poetikasidagi o'rni alohida yoritilgan. Ularning qayd etishicha, forscha-tojikcha leksemalar ko'pincha badiiy tasvir, ruhiy holatni ifodalash, muhitni milliy tarixiy koloritda berish uchun qo'llanadi. Bu holat G'afur G'ulomning “Shum bola” qissasi tilida ham yorqin namoyon bo'ladi. Asarda o'sha davrning shahar hayoti, turmush tarzi va odamlararo munosabatlari aks ettirishda fors-tojikcha so'zlar tabiiy va funksional vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyotshunosligida G'afur G'ulom asarlarining tilini tadqiq qilgan E. Qodirova, N. Karimov kabi olimlar “Shum bola” qissasidagi lug'aviy qatlamni analiz qilib, unda turli tillardan kirgan so'zlar, xususan, fors-tojikcha o'zlashmalarning personaj nutqini individualashtirish, davr ruhini berish va komik effekt yaratishdagi rolini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, yozuvchi fors-tojik tilidan kirgan leksemalarni nafaqat tarixiy-madaniy fon sifatida, balki badiiy vosita sifatida ham mohirona qo'llagan. Shuningdek, umumiy turkiy-fors til munosabatlari bo'yicha A. Rustamov va S.

Ibrohimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar fors-tojikcha o'zlashmalarining grammatik moslashuv qonuniyatlarini yoritadi. Mazkur ilmiy qarashlar "Shum bola" asaridagi forscha-tojikcha leksemalarning fonetik variantlari, semantik taraqqiyoti va stilistik vazifalarini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, o'zbek leksik tizimida fors-tojikcha o'zlashmalar masalasi yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, G'afur G'ulomning "Shum bola" asarida bu qatlamning badiiy-funksional ahamiyatini kompleks tahlil qilish alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi. Bu esa mazkur maqola mavzusining dolzarbligini yana bir bor asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasidagi fors-tojik tilidan o'zlashgan leksemalarning lug'aviy, semantik va stilistik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tizimli lingvistik tahlil metodlariga tayangan holda olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqich va usullarni o'z ichiga oladi: Deskriptiv (tasviriy) metod, etimologik tahlil metodi, leksik-semantik tahlil, kontekstual tahlil metodi.

Tahlil va natijalar. Karvon bu ot ППСда [kar(ye)van] shaklida (390), ТЖРС karvon shaklida keltirilgan. Fors tili lug'atida berilishiga ko'ra bu otning birinchi qismi asli kore ekani, bu qism oxiridagi e mavhum ot yasovchi -i qo'shimchasi ekani, bu qo'shimcha talaffuz qilinmasligi mumkinligi ayon bo'ladi. Tojik tili lug'atida bu qo'shimchali shakl keltirilmagan. Kor[ye] oti "ish, mehnat, vazifa" kabi mano'larni anglatadi (ТЖРС, 192, 193). Kor oti tarkibidagi o tovushi o'zbek tilida a tovushiga almashtirilgan. Karvon oti tarkibidagi ikkinchi qism asli kuzatuvchi mano'sini anglatadigan -bon qo'shimchasi bo'lib, tojik tilida bu qo'shimcha tarkibidagi b tovushi v tovushiga almashtirilgan; o'zbek tiliga shu shaklida olingan. Asli "boshqaruvchi kishi" ma'nosini anglatgan bu ot keyinchalik "uzoq yerlarga yuk tashuvchi tuyalar va ularga qaraydigan shaxslar" ma'nosini anglatadigan bo'lgan. Bu ot bilan o'zbek tilida karvonboshi, karvonsaroy otlari tuzilgan.

Karvon كاروان tuya [yuk tashuvchi hayvonlar qatori] 1; umuman, muayyan ish, maqsad yo'nalishidagi transport vositalari qatori, tudasi; ko'chish (yurish, uchish va sh.k) harakatidagi narsalar to'dasi, qatori; karvonni boshqaruvchi shaxs; karvonboshi; aravalarda yo'lovchi yoki yuk, mol tashish bilan shug'ullanuvchi shaxs; aravakash; karvonboshi, karvonkash, karvonsaroy (O'TIL, II, 768) ma'nolarini bildiradi.

Asardagi vazifasi: qahramonlar tasavvuridagi ko'chmanchilik va sayohat manzaralarini eslatuvchi obraz sifatida xizmat qiladi: "To'satdan, tomdan tarasha tushganday bu so'rashish karvonni cho'chitib yubordi" (ShB, 118). Ushbu ot tub ot hisoblanadi, yasalmagan.

Tahlil qilingan karvon leksemasi bugungi o'zbek tilida turlicha uslubiy va semantik vazifani bajaradi.

hozirgi tilda ko'proq tarixiy-sivilizatsion tushuncha sifatida qo'llanadi;

"karvonsaroy, karvon yo'li, karvon hayoti" kabi birikmalarda madaniy meros timsoli bo'lib xizmat qiladi' obrazli nutqda katta guruh, izchil harakat ma'nolari bilan ishlaydi.

Ig'vogar bu sifat "adashtirish, noto'g'ri yo'lga chalg'itish maqsadi bilan tarqatilgan uydirma" mano'sini anglatadigan arabcha ig'vo otiga (APC, 575) tojikcha -gar qo'shimchasini (ТЖРС, 542) qo'shib hosil qilingan.

Ig'vo [غوا] yo'ldan urish, ozdirish; aldash, adashtirish] Nizo, nifoq solishga, ittifoqni buzishga, buzg'unchilikka qaratilgan xatti-harakat, yolg'on-yashiq, uydirma, bo'hton va sh.k; ig'vogar — ig'vo bilan shug'ullanuvchi, ig'vo tarqatuvchi (shaxs). Ig'vo mavhum otidan quyidagi leksemalar yasalgan: ig'vogarlik, ig'vochi (O'TIL, II, 586).

Asarda qo'llanilishi: qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarni kulguli va tanqidiy tusda berish uchun ishlatiladi: "Xudo taolo va taborak dushmanimizni yer bilan yakson qilsin, ig'vogarlarning, fitna-fasodchilarning og'ziga tosh" (ShB, 174)!

Ushbu ot yasalgan: ig'vo + -gar = ig'vogar. Hozirgi o'zbek adabiy tili tarkibida fors-tojik o'zlashmalari juda katta qatlamni tashkil etadi. Ular nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy nutqning faol unsuri sifatida ham xizmat qiladi. Tahlil qilingan ig'vogar, leksemalari bugungi o'zbek tilida turlicha uslubiy va semantik vazifalarni bajaradi. Bugungi kunda faol ishlatiladi, ayniqsa, adabiy va publitsistik uslubda. "Fitnachi, bo'htonchi" so'zlariga sinonim bo'lib, ma'naviy-axloqiy baholash vazifasini bajaradi. Ko'p hollarda tanqidiy nutqda salbiy xarakterni nomlash uchun qo'llanadi.

Zahar "Og'u" mano'sini anglatadigan bu tojikcha ot asli zahr tovush tarkibiga ega bo'lib (ТЖРС, 153), o'zbek tilida talaffuz qulayligini ta'minlab hr tovushlari oralig'iga a tovushi kiritilgan (O'TIL, 1, 302). Bu ot "og'u singari juda achchiq" belgi mano'sini anglatish uchun ham ishlatiladi. Zahar otidan o'zbek tilida zaharla- (zaharlan-) fe'li, zaharli sifati hosil qilingan.

Zahar [زھ og'u; qahr-g'azab] Tirik mavjudodni og'ulab yemiruvchi yoki o'ldiruvchi modda, og'u; ko'chma ma'noda og'u singari achchiq, kishi hayotini og'ulaydigan, asbobga aylantiradigan narsa, holat; zahar bo'lmoq, zahar qilmoq, zaharini sochmoq, zahar yutmoq, zahri kelmoq, zahri yutmoq, sovuqning zahri, zahri qotil.

Zahar otidan quyidagi leksemalar hosil bo'lgan: zaharlanmoq, zaharli, zaharlovchi, zaharolud, zaharxanda, zahar-zaqqum (O'TIL, I, 326). Qissada giyohvand moddani istemol qilish ma'nosida ishlatilgan: "Seshanba kuni Hoji bobo meni mehribonchilik bilan chaqirib:

– Bolam, bu gap-ku ikkovimizning o'rtamizda qolsin, tag'in Xudo urib anavi "qora"si qurg'urdan totinib-potinib yurganing yo'qmi? – dedi.

– Qorasi nimasi?

– Biz yeydigan "qoraxon" bor-ku, o'shani aytyapman.

– O'zim giyohvandlarning ahvolini ko'rib yuribman, Hoji bobo, men bu zaharni og'zimga olmayman, tepamda Xudo bor" (ShB, 163).

Tub ot bo'lgan Zahar leksemasi stilistik jihatdan ko'pincha, kinoya yoki mubolag'a sifatida ishlatilib, kuchli salbiy munosabatni bildiradi.

Tahlil qilingan zahar leksemasi bugungi o'zbek tilida turlicha uslubiy va semantik vazifalarni bajaradi:

hozirgi adabiy tilda to'g'ri va ko'chma (metaforik) ma'nolarda qo'llaniladi;

ko'chma ma'noda "zaharli gap, zaharli munosabat" tarzida psixologik holatni ifodalaydi;

tibbiyot, biologiya va badiiy adabiyotda ishlatiladigan ko'p qatlamli termin sifatida ahamiyatli.

Juvonmarg bu birlik PRSga [djävanmärg] shaklida (156), ТЖРС ga chavon(i)marg shaklida (510), O'TILga esa juvonmarg shaklida kiritilgan (1, 290); demak, o'zbek tiliga fors tilidagi shaklning birinchi bug'inidagi a tovushi u tovushiga almashtirib olingan. Bu birlik "yosh" mano'sini anglatadigan juvon oti bilan (q.) "o'lim" mano'sini anglatadigan marg otidan tarkib topgan bo'lib, tojik va o'zbek tillarida "yoshligida vafot etgan" ma'nosini anglatadi. Katta yoshdagi ayollar nutqida bu birlik juvonnimak bulgur qarg'ish fe'li tarkibida ishlatiladi; bu yerda n tovushidan keyin ni tovushlari kiritiladi, r tovushi aytilmaydi, oxiridagi g tovushi k tovushiga almashadi.

Juvon [yosh, umrining yarmiga ham yetmagan odam yoki hayvon]

Turmushga chiqqan yosh ayol, erdan chiqqan yoki tul qolgan xotin (O'TIL, II, 697).

Juvonmarg yosh, bevaqt o'lgan; yosh o'lgan, avji yetilgan paytida halok, nobud bo'lgan; qarg'ish ma'nosida o'lgur, yer yutgur; juvonmarg bo'lmoq yosh o'moq, yosh halok, nobud bo'moq; juvonmarg qilmoq badnom qilmoq, barboq qilmoq, yo'q qilmoq. Juvonmarg so'zidan quyidagi leksemalar yasalgan: juvonso'xta, juvonbaxt, juvonboz, juvonbozlik, juvonlik, juvonmardm juvonmardlik.

Fonetik o'zgarish bilan yasalgan so'zlar esa: juvori, juvoz, juvana (O'TIL, II, 696).

Ushbu murakkab ot asarda qarg'ish ma'nosida kelgan: "– Hoy, juvonmarg zumrasha, tag'in ko'chagami" (Sh.B, 13)?, "– Juvonmarg, kap-katta bola, uylansang bolang bo'ladi, shu yerda, shunday Fotimay Zahroning dastgohlari bo'lgan qutlug' yerda siyib o'tiribsanmi?" (Sh.B, 14)?

Durbin Asli "uzoq" ma'nosini anglatadigan dur I sifatiga (ТЖРС, 140) "ko'r-" ma'nosini anglatadigan didan fe'lining (ТЖРС, 128) bin hozirgi zamon asosini (ТЖРС, 71) qo'shib hosil qilingan bo'lib, "uzoqni ko'radigan" ma'nosini anglatadi (ТЖРС, 140: durbin 2); shu ma'no asosida "uzoqni yaqin va yirik qilib ko'rsatadigan asbob" ma'nosini anglatadigan ot yuzaga kelgan (ТЖРС, 140: durbin I); o'zbek tiliga ot ma'nosi bilan olingan (O'TIL, I, 240).

Durbin [دور – uzoq + ين – ko'ruvchi] Uzoqni yorug' va katta qilib ko'rsatadigan, uzoqdagi narsalarni ko'rish va kuzatish uchun xizmat qiladigan asbob; binokl.

Ko'chma ma'noda zehn, aql-idrok (O'TIL, I, 941) ma'nolarida kelgan. Asarda uzoqni yaqin va yirik qilib ko'rsatadigan asbob ma'nosida qo'llanilgan: "Ikkalamiz ikkita durbinni olib ko'ra ketdik. Ilhom samovarchining ukasi kal lbroy durbin surat ko'rsatar edi" (ShB, 168).

Hozirgi texnik leksikonda optika, kuzatuv, astronomiya, harbiy terminlar sifatida faol. So'zning o'zbekcha muqobil yu'q (faqat "ko'rish asbobi" umumiy nom) bo'lganligi uchun terminologik barqaror birlik sifatida ahamiyatga ega.

Bebosh bu sifat "yo'q" ma'nosini ifodalaydigan tojikcha be- old qo'shimchasini (ТЖРС, 544) o'zbekcha bosh otiga o'zbek tilida qo'shib hosil qilingan bo'lib, asosan "gapga kiravermaydigan" ma'nosini anglatadi (O'TIL, I, 93). So'zlashuv tilida bevosh shaklida ham aytiladi. Bu sifatdan beboshlik mavhum oti hosil qilingan bo'lib, Yoshlik — beboshlik hikmati tarkibida ishlatiladi.

Bebosh [Boshi (kallasi) yo'q; boshi kesilgan, boshsiz] Aqlsiz, nodon; to'g'ri maslahatga yurmaydigan; hech kimga quloq solmaydigan; gapga kirmaydigan; quloqsiz; tarbiyasiz; tarbiya-intizomga bo'ysunmay qo'ygan; itoatsiz, o'zboshmicha; yomon yo'lga kirgan, axloqi buzilgan; tiyib, to'xtatib, qaytarib bo'lmaydigan; jilovsiz. Bebosh otidan quyidagi leksemalar yasalgan: beboshbog', beboshlik, beboshvoq (O'TIL, I, 351). Asarda itoatsiz ma'nosida ishlatilgan: "Shu bebosh askarlarning boshida Masterovoy degan bir polvon turgan emish..." (ShB, 132), "Ko'knorilar jamoatchiligi aybni goh yallachiga, goh Rahmat hojining o'ziga, goh marg'ilonlik xotin Latifa xonga, goh betizgin, bebosh olomonga, goh Mochalov va mirshablarning beparvoligiga qo'yar edilard" (ShB, 152).

Banda bu ot "qaram bo'l-" ma'nosini anglatadigan tojikcha bastan fe'lining (ТЖРС, 51) band hozirgi zamon asosiga (ТЖРС, 44) tojikcha -a qo'shimchasini (ТЖРС, 543) qo'shib hosil qilingan bo'lib, o'zbek tilida "taqdiri Allohning ixtiyoridagi kishi" ma'nosini anglatadi (O'TIL, I, 78).

Banda [بند – qul, itoatkor; kamina] Din. Alloh yaratgan, taqdiri uning qo'lida bo'lgan kishi; Allohning quli. Umuman odam, kishi; kimgadir, biror mishiga qaram kishi; fuqaro; biror narsaga butun vujudi bilan berilgan kimsa; oshiq,

maftun, shaydi bo'lgan kishi haqida. Bu otidan bandalik mavhum oti yasalgan bo'lib, bu ot bilan "vafot et-" ma'nosini anglatadigan bandalikni bajo qil- iborasi hosil qilingan (O'TIL, I, 268). Tub ot bo'lgan banda leksemasi asarda Allohning quli, gunohkor banda ma'nosida qo'llanilgan: "Ana shunda, bilmadim, boshqa g'ofil bandalar ko'rdimi, yo'qmi, yonboshlarida bir yarim mingta maloyika ergashib kelayotganligini o'z ko'zim bilan ko'rganday bo'ldim" (ShB, 70), "Qo'y og'zidan cho'p olmagan Xudoning bandasiman" (ShB, 119).

Balli bu undov ПРСda [bäle] va [bäli] shakllarida (72) keltirilib, "ha", "quvvatlash, qo'shilish" ma'nosini; ТЖРС da bale shaklida keltirilib, "tasdiqlash, quvvatlash" ma'nolarini (44); O'TILda balli shaklida keltirilib, "rag'batlantirish, tasdiqlash" ma'nolarini (I, 76) ifodalashi aytilgan. O'zbek tiliga bu undov forscha bali shakli tarkibidagi I tovushini qatlab olingan.

Balli لى [ha, albatta; to'g'ri] Maquullash, tasdiqlash, maqto'v, tahsin ma'nolarini ifodalaydi; cho'zilib talaffuz qilinganida, norozilik, kesatq ma'nolarini ifodalaydi.

(fr. Balle – shar); muayyan ball kuchiga ega bo'lgan; raqamlar sistemasi bilan ifodalangan. Balli leksemasi o'zagidan quyidagi so'zlar yasalgan: balliistik, ballistika (O'TIL, I, 257). Balli leksemasining o'rinbosar sinonimlari: ofarin, barakalla, tasanno, qoyil, ajoyib. Asarda tasdiqlash ma'nosida kelgan: "– Ha, balli, azamat, necha kundan buyon ko'zim uchib, yo'lpashsha aylanib yurgan edi, haytovur yaxshilikka ko'rindi. Sen kellar ekansan, balli-balli, – dedi pochcham (ShB, 15), "Bu gaplarni hamma "balli-balli", deb tasdiqladi" (ShB, 161).

Afsus bu ot ПРСda [äfsus] shaklida (33), ТЖРС afsus shaklida (35) keltirilgan; u tovushi fors lug'atida vov harfi bilan yozilgan, demak, bu tovush cho'ziq. O'zbek tilida bu tovushning cho'ziqligi yo'qolgan (O'TIL, I, 63).

ТЖРС da bu otning fusos shaklida ham keltirilishidan (415) ma'lum bo'ladi, afsus shakli — ikkilamchi, hosila shakl. Bu hodisani tojikcha otning ko'plik shakli arabcha ko'plik shakli formulasi bilan hosil qilingan deb (ТЖРС, 537) talqin qilish mumkin. ПРСda afsus "1. uyay!, afsus!, attang! (pushaymonlik undovi). 2. pushaymonlik, achinish, iztirob, nadomat ma'nolarini bildirishi (35). Tilda esa: 1. Ukinish, achinish tuyg'usi; pushaymon. 2. Kirish so'zi: "Attang, esiz..." ma'nolarini bildirishi (I, 63) aytilgan. Demak, äfsus aslida ot bo'lib, keyinchalik shu otidan undov o'sib chiqqan. Afsus otidan o'zbek tilida afsuslan- fe'li yasalgan.

Afsus [افسوس nadomat, pushaymon] O'kinish, achinish tug'usi, pushaymon; afsus qilmoq pushaymon bo'lmoq, afsuslanmoq. Narsa -hodisaning xohish-istakka zidligi, so'zlovchining shunday munosabatini bildiradi. Afsuski zidlash, to'liqsiz ma'noni bildiradi. Afsuslanmoq fe'lidan ushbu fe'llar yasalgan: pushaymon qilmoq, pushaymon yemoq (O'TIL, I, 53). Asarda pushaymonlik ma'nosida ishlatilgan: "Lekin ko'p afsuslar bo'lsinki, egasini so'yib qo'yganim uchun mendan o'ch olishni kutib yotgan salmoqli palang quyushqoni bo'ynimga ilinib, o'zi bilan birlashtirib, ikki qo'llab domlapochchamning oldiga meni sudrab tushgan edi (ShB, 56).

Xayr, mayli, endi afsusning foydasi yo'q" (ShB, 79).

Anjom bu ot ПРСda keltirilmagan. ТЖРСga anchom omonim sifatida kiritilib, anchom II oti "принадлежности, предмет, обихода" deb izohlangan (29). O'TILda anjom oti [f-t] ta'kidi bilan keltirilib: "1) uy-ro'zg'or asboblari; 2) har sohaga xos narsalar, asbob-qurollar" deb ta'riflangan (I, 47). Demak, bu otning ma'nosini "ro'zg'or va soha jihozlari" deb ta'riflash mumkin.

Anjom انجم [tugash, oxir] Uy-ro'zg'or narsa-buyumlari, asboblariga tegishli narsa.

Har qaysi sohaning o'ziga xos narsalari, kerak-yaroqlari; asbob-qurollari (O'TIL, I, 114). Uskuna, jihoz, asbob

so'zlari bilan semantik jihatdan yaqin bo'lgan anjom leksemasi asarda ro'zg'or va soha jihozlari ma'nosida ishlatilgan: "Undan yo'l xarajatlarini, safar anjomlarini oldik. Chunonchi: bir qadoq tuz, ikki qadoq turshak, oltita zog'ora non, ip, nina, ikkita ichi tushgan bosvoldi" (ShB, 40).

Xulosa. Fors-tojik o'zlashmalari "Shum bola" asarining tilida muhim poetik- stilistik vazifa bajaradi. Ular: xalqona nutq ohangini berish, personaj xarakterini ochish, davr ruhini yaratish, tasvirning tabiiyligini ta'minlash kabi funksiyalarni bajaradi.

Tahlil qilingan leksemalar tarkibiy jihatdan asosan tub va murakkab shakllardan iborat bo'lib, ularning aksariyati bugungi o'zbek tilida faol qo'llanadigan birliklardir. Ayrimlari terminologik yoki hissiy-ekspressiv ma'noda muhim vazifa bajaradi. Sinonimik qatorlarni boyitadi va uslubiy rang-baranglik yaratadi.

G'afur G'ulom ana shunday o'zlashmalarni badiiy maqsadga muvofiq ishlatib, asarning tilini o'tkir, xalqona va obrazli qilgan.

ADABIYOTLAR

1. G'afur G'ulom. Shum bola. – Toshkent: Ilm-ziyo zakovat nashriyoti, 2021.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2003.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI tomlik, Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
4. Abdushukurov B. O'zbek Tili Tarixi. "Nodirabegim" nashriyoti Toshkent – 2021.
5. Sodiqov, Q., Mahmudov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — T.: O'qituvchi, 1990.